


2020-yil yanvar-fevral oylarida Toshkent shahrida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Bugungi kunda mamlakatning iqtisodiy holatini baholashda xizmatlar sohasining ko'lami, tarkibi va rivojlanish darajasi alohida o'rin tutadi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi, milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi, xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2020-yil 1-mart holatiga Toshkent shahrida jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 86,5 mingtaga yetdi. Xizmatlar ko'rsatish sohasida 63,5 mingtasi xizmatlar sohasining iqtisodiy faoliyat turiga to'g'ri kelib, jamiga nisbatan 73,4 % ga yetib, 2019-yilning shu davriga nisbatan ularning o'sishi 19,1 % ga oshdi.

2020-yil 1-mart holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil 1-mart holatiga ko'ra, xizmatlar ko'rsatish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo xizmatlari bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar (34,9 %) yuqori ulushni egallaydi.


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar soni 9,7 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi xizmatlar sohasiga tegishli korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 5,5 % ga yetdi.

Axborot faoliyati bilan shug'ullanuvchi va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi 5,2 % ga teng bo'ldi.

Sog'liqni saqlash hamda ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi 2,5 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-mart holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tuzilmasi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Kichik tadbirkorlik subyektlari mamlakatda xizmatlar ko'rsatish sohasini rivojlantirishga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu sababli, tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish zarur.


Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli korxonalarining o'sishi xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni, ming birlikda




Xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining ijtimoiy harakatchanligini, ishlab chiqarish samaradorligi va moddiy mahsulotlar

iste'molini oshirishni ta'minlaydi.



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 347,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Uning nominal hajmi 2 677,9 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish 14,1 % ni tashkil etadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (133,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (125,5%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (120,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,1 %), kompyuter va

(dastlabki ma'lumotlar)

maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (111,4 %), savdo xizmatlari (106,0 %) da qayd etildi.

Yuqori bo'lmagan o'sish transport xizmatlari (100,4 %), shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (98,8 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar - jami	11 347,4	114,1
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 010,0	123,2
Moliyaviy xizmatlar	3 586,9	132,0
Transport xizmatlari	1 157,5	100,6
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	745,6	106,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	426,8	104,8
Savdo xizmatlari	2 607,3	106,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	491,0	105,1
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	555,3	97,5
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	234,8	134,2
Ijara xizmatlari	236,6	100,2
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	56,0	111,0
Shaxsiy xizmatlar	146,6	104,8


(dastlabki ma'lumotlar)

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	283,7	95,7
Boshqa xizmatlar	554,8	101,2

Sifatli o'zgarishlar va institutsional islohotlar chuqurlashishi bilan bir qatorda chakana savdo, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar kabi xizmat turlari asosan xususiy tadbirkorlikni faollashuvi hisobiga jadal rivojlanmoqda.

Davlatning iqtisodiy siyosatida axborot kommunikatsiya xizmatlari (mobil aloqa, Internet, raqamli televideniye va hokazo) kabi zamonaviy aloqa xizmat turlarini, shuningdek zamonaviy moliyaviy xizmat turlarini (bank xizmatlari, lizing, sug'urta, audit, konsalting va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha masalalar alohida ahamiyatga ega.

2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tuzilmasi, % da




(dastlabki ma'lumotlar)

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 11 347,4 mlrd. so'mga teng bo'lib, uning nominal hajmi 2 677,9 mlrd. so'mga oshdi.

Bozor xizmatlarining umumiy hajmida Yunusobod tumanining ulushi eng ahamiyatli bo'lib, 17,5 % ni tashkil etadi. Bu aholi real daromadlari boshqa tumanlardan ko'ra yuqoriroq ekanligi bilan izohlanadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida tumanlar ulushi, % da




Shuningdek, eng katta ulush Yunusobod (17,5%), Mirobod (16,1%), Yashnobod (11,5%), Chilonzor (10,9%), Mirzo Ulug'bek (10,0%) va Shayxontohur (9,6%) tumanlarida qayd etilgan.

(dastlabki ma'lumotlar)

Xizmatlar sohasining eng past ko'rsatkichlari esa Yakkasaroy (5,9 %), Olmazor (5,6 %), Sirg'ali (5,1 %), Uchtepa (4,6 %), Bektemir (2,8 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Eng yuqori o'sish sur'ati moliyaviy xizmatlar (133,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (125,5 %), aloqa va axborotlashtirish (120,5 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (114,1 %), kompyuter va maishiy

(dastlabki ma'lumotlar)

tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (111,4%), savdo xizmatlari (106,0 %), shaxsiy xizmatlar (105,6 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (104,1 %)da qayd etildi.

Eng past o'sish sur'ati boshqa xizmatlar (103,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (102,8 %), ijara xizmatlari (100,6 %), transport xizmati (100,4 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (98,8%)da kuzatildi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Toshkent sh.	11 347,4	114,1
<i>tumanlar:</i>		
Bektemir	315,6	110,8
Mirzo Ulug'bek	1 135,2	109,3
Mirobod	1 826,1	112,3
Olmazor	636,5	120,1
Sirg'ali	580,3	98,7
Uchtepa	525,4	107,3
Chilonzor	1 235,0	129,4
Shayxontohur	1 085,2	113,4


(dastlabki ma'lumotlar)

Yunusobod	1 986,5	117,3
Yakkasaroy	664,6	96,7
Yashnobod	1 300,9	125,3
Tumanlardan tashqari	56,1	94,0

Ichki talabni muvozanatli rag'batlantirish va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash bo'yicha ko'rilayotgan choralar xizmatlar sohasida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarga olib keldi. Transport va mobil aloqa xizmatlari, oilaviy tadbirlar va dam olishni tashkil qilish, internet xizmatlari, maishiy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab ortdi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tuzilmasi, % da

(dastlabki ma'lumotlar)



Joriy davrda ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida moliyaviy xizmatlar ulushi eng katta 31,6 % ni tashkil etadi.

Shu bilan birga, eng yuqori ulush savdo xizmatlari (23,0 %), transport xizmatlari (10,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (8,9 %), boshqa xizmatlar (4,9 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (4,9 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (4,3 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (3,7 %), shuningdek me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2,5 %)da kuzatildi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 3 586,9 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1 272,9 mlrd. so'mga oshdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

**2020-yil yanvar-fevral oylarida tumanlar kesimida
moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati, % da**




2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan moliyaviy xizmatlarning o'sishi Chilonzor (186,8 %), Uchtepa (148,6 %) va Yashnobod (139,3%) tumanlarida kuzatilmoqda.

Boshqa tumanlarga nisbatan shu davr uchun o'sish sur'ati Olmazor (100,2 %), Bektemir (97,1 %), Sergeli (94,7 %) tumanlarida sezilarli emas.

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,2 % ni tashkil etadi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida
moliyaviy xizmatlarning tuzilmasi, % da**



- Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar
- Sug'urta xizmatlari
- Yordamchi moliyaviy faoliyat

Xizmatlar sohasining rivojlanishi iqtisodiy qarorlar qabul qilish yo'lidan bormoqda. Shunday qilib savdoda qisqa vaqt ichida uning kichik va eng chakana tashkilotning kichik shakllari, kichik-chodirlar, do'konchalar, peshtaxtalar, yengil konstruksiyali va yarmarka turidagi pavilionlar soni ko'paymoqda.

Kichik savdogarlarning yordami bilan iste'mol bozorini to'ldirish muammosi tezda hal qilindi, xaridor esa buning natijasida mahsulotni tanlash imkoniyatiga ega bo'ldi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida savdo xizmati muhim rol o'ynab, bunda, ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani amalga oshiradigan, tovarlar ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasiga, shuningdek, ularning turfa xilligi va sifatini yaxshilashga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 23,0 % ni tashkil etib, bu 2 607,3 mlrd. so'mga teng bo'ldi.


(dastlabki ma'lumotlar)

Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) umumiy savdo xizmatlari hajmining qariyb yarmi ya'ni – 47,8 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) xizmatlarining ulushi 44,8 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-fevral oylari uchun
savdo xizmatlari tuzilmasi, % da**



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

Transport xizmatlari hajmining o'sishi, yuk va yo'lovchilarni tashish xizmatlariga talabning oshishi bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida turistik faoliyatning jadal rivojlanishi, savdo tarmog'ining kengayishi, qurilish loyihalari hajmini yanada kengaytirishga, bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish, shuningdek, transport va logistika infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq.

(dastlabki ma'lumotlar)

Transport xizmatlarining eng katta ulushi avtomobil transportida yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha xizmatlarga to'g'ri keladi. Transportning ushbu turi boshqa transport turlari bilan taqqoslanganda uning moslashuvchanligi va ko'rsatilayotgan xizmatlarning nisbatan arzonligi sababli eng ko'p talabga ega hisoblanadi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tuzilmasi, % da



Transport xizmatlari umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlarining ulushi 64,4 % ni tashkil etadi.

Bundan tashqari, saqlash va yordamchi transport xizmatlari 33,4 % tashkil qilgan bo'lsa, kuryerlik va pochta faoliyati ulushi esa 2,1 % temir yo'l transporti orqali ko'rsatilgan xizmatlar – 0,1 % ga yetdi.

Bundan tashqari, so'nggi yillarda bozorni zamonaviy axborot texnikasi va aloqa vositalari bilan jadal to'ldirish yuz bermoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi yuqori texnologiyali innovatsion ishlanmalardan foydalanish korxonalarida boshqaruv va texnologik jarayonlar samaradorligini oshirishga, iqtisodiyotning turli sohalarida tovarlar va xizmatlarning yangi bozorlarini

(dastlabki ma'lumotlar)


yaratishga va mavjud bozorlarni kengaytirishga yordam beradi va bu oxir-oqibat aholi hayotining sifatini yaxshilanishiga olib keladi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 1 010,0 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sishi 20,5 % ga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmdagi ulushi 8,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va hokazo) egallab, uning ulushi 65,9 % ni tashkil etdi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida
aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tuzilmasi, % da**



Joriy davrda aloqa va axborotlashtirish xizmatlari umumiy hajmida nashriyotchilikning ulushi 8,7 %, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa shu kabi xizmatlarning ulushi – 11,4 %,

(dastlabki ma'lumotlar)

axborot sohasidagi xizmatlari - 4,9 %, boshqa xizmatlar – 9,1 % ni tashkil etdi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, bilimlar va xizmatlar iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim sharti kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning rivojlangan tizimi hisoblanadi. Amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida mamlakatga turli ixtisoslashgan sohalarda yuqori darajadagi mutaxassislar kerak. Yuqori malakali kadrlar innovatsion iqtisodiyotning harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi mumkin.



2020-yil yanvar-fevral oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 555,3 mlrd. so'mga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 156,4 mlrd. so'mga ko'paydi.

2017-2021 yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblangan ta'lim va fan sohasini rivojlantirish quyidagilardan iborat:

uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish;


ta'limning xalqaro standartlarini joriy etish va o'qitish sifatini baholash, oily o'quv muassasalariga qabul kvotalarini bosqichma-bosqich oshirish, oily o'quv muassasalarining sifati va samaradorligini oshirish

ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini

(dastlabki ma'lumotlar)

yaratish, oliy talim muassasalari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ilmiy-eksperimental ixtisoslashtirilgan laboratoriyalar, yuqori texnologiyalar markazlari va texnoparklarni tashkil etish.

2020-yil yanvar-fevral oylarida tumanlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining hajmi, mlrd. so'm




Talim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining eng katta hajmi Yunusobod tumanida qayd etildi. 2020-yil yanvar-fevral oylarida 96,4 mlrd. so'mga yetdi.

Ta'lim sohasida xizmatlar bo'yicha yuqori o'sish sur'ati Yunusobod tumanida – 167,9 % ni tashkil etdi.

(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-fevral oylarida tumanlar kesimida ta'lim sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da



Bundan tashqari, ta'lim sohasidagi xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Yashnobod (136,1 %) va Chilonzor (133,3 %) tumanlarida qayd etildi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida eng past o'sish sur'ati Mirzo Ulug'bek tumani (61,2 %) da kuzatildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari




(dastlabki ma'lumotlar)

2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil etdi, hajmi esa 78,6 mlrd. so'mga oshdi va 426,8 mlrd. so'mga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlarning ulushi 73,9 % bilan ustunlik qiladi.


2020-yil yanvar-fevral oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning tuzilmasi, % da



- Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar
- Yashash xizmatlari

Joriy yil yanvar-fevral oylarida yashash bo'yicha xizmatlar hajmi 426,8 mlrd. so'mga oshib, 3,7 % ulushni tashkil etdi. Ushbu turdagi xizmatlarning o'sishiga aholining dam olish uylari, bolalar lagerlari, kottejlar va boshqa dam olish maskanlari xizmatlariga bo'lgan talabi o'z hissasini qo'shdi.

**2020-yil yanvar-fevral oylarida tumanlar kesimida
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning
hajmi va o'sish sur'ati**




Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng yuqori hajmi Yunusobod tumanida 108,0 mlrd. so'mni tashkil etdi, 2020-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 94,3 % ni tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning eng kichik hajmi Bektemir tumanida – 4,1 mlrd. so'm qayd etilib, 111,9 % tashkil etdi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlarining eng yuqori o'sishi Shayxontohur tumanida qayd etildi (130,3%). Bundan tashqari, Bektemir (111,9%) va Chilonzor (108,6 %) tumanlarida xizmatlar o'sishi kuzatildi.

2020-yil yanvar-fevral oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi 234,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 125,5 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarda tumanlar ulushining taqqoslanishi, % da



Toshkent shahrida sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish chora-tadbirlarini amalga oshirish doirasida aholiga tibbiy va ijtimoiy-tibbiy xizmat ko'rsatish qulayligi hamda sifatini oshirish, aholining yuqori sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, ularga maxsus va yuqori texnologik tibbiy yordam ko'rsatishga yo'naltirilgan, eng avvalo, uning dastlabki bo'g'inini, tez va shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada isloh qilish aholiga tibbiy yordam ko'rsatishning zamonaviy tizimini shakllantirishda ijobiy natijalarga erishishga muvaffaq bo'lindi.

Tumanlar orasida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar bo'yicha yetakchi o'rinni Olmazor tumani egallaydi, joriy yilda o'tgan yilning mos davriga nisbatan hajmi 25,3 mlrd. so'mga ko'paydi. Uning sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 23,3 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, nisbatan yuqori ulush Mirzo Ulug'bek(18,8 %) va Chilonzor (15,0 %) tumanlarida qayd etildi.

(dastlabki ma'lumotlar)

Joriy davrda sog'liqni saqlash sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmidagi xizmatlar ulushi nisbatan katta bo'lmagan tumanlar Bektemir (0,6 %) va Sirg'ali (1,4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib hayot sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir.

Mamlakatimizda post-industriyadan keyingi axborot jamiyati shakllanar ekan, aholining ehtiyojlari tobora o'sib borishi va ularning xilma-xilligi kengayib borayotganligi sababli, xizmat ko'rsatish sohasining roli tobora ortib bormoqda.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

71-230-88-15